

TOVLAMACHILIK JINOYATINI KVALIFIKATSIYA QILISHNING O‘ZIGA XOS TOMONLARI: TOVLAMACHILIKNING JINOYAT TARKIBI ELEMENTLARI TAHLILI

*Surxondaryo viloyat ichki ishlar boshqarmasi shimoliy mintaqaviy
hudud saf bo‘linmalari patrul post xizmati otryadi komandiri,
mayor **Shadmanov Sharafuddin Raimovich***

*Командир отряда патрульно-постовой службы Северного регионального
управления Сурхандарьинского областного управления внутренних дел,
майор **Шадманов Шарафуддин Раимович***

*Commander of the patrol post service detachment of the northern regional
division of the Surkhandarya regional internal affairs department,
major **Shadmanov Sharafuddin Raimovich***

Email: sadmanovsarof@gmail.com

Tel: +99899 644 12 34

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada tovlamachilik jinoyatini kvalifikatsiya qilishning o‘ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Unda tovlamachilikning huquqiy belgilari, ijtimoiy xavflilik darajasi, obyektiv va subyektiv tomonlari, tahdid turlari hamda jinoyatni boshqa o‘xshash jinoyatlardan farqlash masalalari yoritilgan. Shuningdek, sud amaliyotida tovlamachilikni aniqlashda dalillarning ahamiyati va tahdidning haqiqiyligini aniqlash mezonlari ham ko‘rib chiqiladi. Tovlamachilikning jamiyatga xavfi, uning ijtimoiy aloqalarga ta’siri va huquqiy baholashdagi murakkabliklar tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: tovlamachilik, tahdid, mulkiy huquq, ijtimoiy xavf, jinoyat kvalifikatsiyasi, zo‘ravonlik, firibgarlik.

АННОТАЦИЯ

В статье рассматриваются особенности квалификации преступления вымогательства. Анализируются правовые признаки, степень общественной опасности, объективные и субъективные стороны состава преступления, а также виды угроз и их влияние на потерпевшего. Особое внимание уделяется различию вымогательства от смежных преступлений, таких как грабеж, разбой и мошенничество. Освещается значение доказательств в судебной практике и критерии установления реальности угрозы. Показано, что вымогательство представляет серьезную опасность для общественных отношений и способствует формированию криминальной среды.

Ключевые слова: вымогательство, угроза, имущественное право, общественная опасность, квалификация преступления, насилие, мошенничество.

ABSTRACT

This article analyzes the specific features of the legal qualification of extortion crimes. It examines the legal characteristics, social danger, objective and subjective elements, and different forms of threats used to coerce victims. The paper also distinguishes extortion from related crimes such as robbery, assault, and fraud. The role of evidence in judicial practice and the assessment of the credibility of threats are discussed. The study concludes that extortion poses a significant threat to social relations, undermines public trust, and fosters criminal activity.

Keywords: extortion, threat, property rights, social danger, crime qualification, violence, fraud.

Jinoyat kodeksining 165-modda birinchi qismida “tovlamachilik” tushunchasiga quyidagicha ta’rif beriladi: “Tovlamachilik, ya’ni jabrlanuvchi yoki uning yaqin kishilariga zo’rlik ishlatish, mulkka shikast yetkazish yoki uni nobud qilish yoxud jabrlanuvchining axborot resursini yo’q qilish, o’zgartirish, olib qo’yish yoki to’sib qo’yish yoxud uni sharmanda qiladigan uydirmalar tarqatish bilan qo’rqitish, jabrlanuvchi uchun sir saqlanishi lozim bo’lgan ma’lumotlarni oshkor qilish bilan qo’rqitib o’zgadan mulkni yoki mulkiy huquqni topshirishni, mulkiy manfaatlar berishni yoxud mulkiy yo’sindagi harakatlar sodir etishni talab qilish yoxud jabrlanuvchini o’z mulki yoki mulkka bo’lgan huquqini berishga majbur qiladigan sharoitga solib qo’yish”¹.

Jinoyatning huquqiy alomatlarini tahlil qilish natijasiga ko’ra, tovlamachilikning jamiyat uchun xavfliligi, birinchi navbatda, bir nechta jinoyat huquqi bilan muhofaza qilinadigan obyektlarga jiddiy zarar yetkazish imkoniyatida namoyon bo’ladi. Bugungi kunda bunday obyektlar, mulkdan tashqari, sog’liq, inson sha’ni va qadr-qimmati hamda shaxsiy erkinligini o’z ichiga oladi.

Ijtimoiy xavf elementi jinoyatning moddiy belgisini anglatadi va qonun bilan muhofaza qilingan ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish ehtimolida namoyon bo’ladi. Ijtimoiy xavf alomati obyektiv xususiyatga ega bo’lib, subyektiv baholardan mustaqil ravishda mavjud bo’ladi. Shunday qilib, harakat ijtimoiy xavfli deb baholangan bo’lsa-da, ammo uning aslida jinoyat ekanligini istisno qiluvchi asoslar mavjud bo’lishi mumkin. Bular qatoriga, o’zini-o’zi himoya qilish yoki zarurat kirishi mumkin. Bunday asoslar harakatning jinoyat ekanligini istisno qilsa-da, ijtimoiy xavfliligini mutlaq istisno qilmaydi.

Ijtimoiy xavf ijtimoiy munosabatlarga zarar yetkazish ehtimolini aks ettirib, zararining mavjudligi bilan belgilanadi. Agar harakat ijtimoiy munosabatlarga tahdid solsa yoki bunday tahdid uchun qulay va asosli sharoitlar mavjud bo’lsa, u ijtimoiy

¹ O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>

xavfli hisoblanadi. Biroq, xatti-harakat jinoyat deb hisoblanishi uchun boshqa alomatlar ham bo‘lishi lozim.

Binobarin, qilmish faqat zo‘ravonlik ishlatish, boshqa shaxslarning mulkini yo‘q qilish yoki shikastlash bilan tahdid qilish yoki jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlarini obro‘sizlantiradigan ma'lumotlarni yoki jabrlanuvchi yoki uning qarindoshlarining qonuniy manfaatlariga jiddiy zarar yetkazishi mumkin bo‘lgan boshqa ma'lumotlarni oshkor qilish bilan tahdid qilish bilan bog‘liq bo‘lsa, tovlamachilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi mumkin.

Tovlamachilikning ijtimoiy xavflari bir necha jihatda namoyon bo‘ladi. Mazkur jinoyat turi ijtimoiy aloqalarni susaytirib, qo‘rquv va shubha muhitini yaratadi. Tovlamachilik jamiyatda tartib buzilishiga, moliyaviy resurslarning noqonuniy aylanishi rag‘batlantirilishiga sabab bo‘ladi. Bu kabi omillar jamiyatda ishonchsizlik hissi uyg‘onishiga olib keladi. Bundan tashqari, tovlamachilik ijtimoiy tengsizlik kuchayishiga olib keladi, chunki bu jinoyat ko‘pincha aholining kuchli va zaif qatlamlari o‘rtasida kechadigan jarayondir. Tovlamachilikning yana bir ijtimoiy xavflaridan biri, u jinoiy muhitning shakllanishini, korrupsiya, firibgarlik va jinoiy to‘dalarning ko‘payishini rag‘batlantiradi.

“Tovlamachilik jinoyatining jinoiy-huquqiy tavsifi mazkur ijtimoiy xavfli qilmishning yolg‘iz holda yoki guruh tarkibida sodir etilishiga xos xususiyatlarni, aybdor shaxsga nisbatan jinoyat qonuni normalari asosida javobgarlik qo‘llash (kvalifikatsiya) masalalarini qamrab oladi”².

Tovlamachilikning obyektiv tomonlari boshqa birovning mol-mulkini yoki unga bo‘lgan huquqlarini boshqa birovga o‘tkazishni talab qilish, shuningdek, mol-mulk bilan bog‘liq boshqa jinoiy harakatlarni sodir etish; zo‘ravonlik bilan tahdid qilish, jabrlanuvchi yoki uning yaqinlarini obro‘sizlantiruvchi ma'lumotlarni tarqatish va ularning mol-mulkini yo‘q qilish bilan tahdid qilish shakllarida namoyon bo‘ladi.

Tovlamachilik jinoyatchini uning talablarini bajarishga majburlashga qaratilgan tahdidlar yordamida amalga oshiriladi. Tahdid psixologik xususiyatga ega bo‘lib, jabrlanuvchini muayyan harakatlarni bajarishga majburlash orqali uning irodasini sindirishga qaratilgan harakatlar majmuidan iborat bo‘ladi. Jinoyatning mavjud bo‘lishi uchun jabrlanuvchi unga qaratilgan tahdid amalga oshirish mumkinligiga ishonishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Tovlamachilik jinoyatining quyidagi tahdid turlari ajralib turadi:

- jabrlanuvchiga yoki uning yaqinlariga nisbatan zo‘ravonlik bilan tahdid qilish;

² Raximxo‘jayev R.N., Meyliyev N.N. (2024). Tovlamachilik jinoyatining tezkor-qidiruv tavsifining ayrim jihatlarini tahlili. // Образование наука и инновационные идеи в мире, 48(6), 33-bet.

- jabrlanuvchiga yoki uning qarindoshlariga tuhmat qiluvchi ma'lumotlarni tarqatish bilan tahdid qilish;
- jabrlanuvchiga yoki uning qarindoshlariga tegishli mulkni yo'q qilish bilan tahdid qilish.

“Tovlamachilikda faqat moddiy boyliklarga emas, balki moddiy balki mulkiy maqomdagi hujjatlar, qarz (tilxat), merosdan voz kechish to'g'risidagi hujjat, moddiy boyliklarni olish uchun ishonch qog'ozi, sanatoriylarga yo'llanma va hokazo ham tajovuz buyumi bo'lishi mumkin”³. Bu jinoyatning ijtimoiy xavfliligi shundaki, u nafaqat real mol-mulk, balki moddiy qiymatga ega bo'lgan hujjatlar orqali ham jabrlanuvchining manfaatlariga zarar yetkazadi. Shu sababli hujjatlar ham mulkiy maqomga ega qiymatli obyektlar sifatida muhofaza qilinishi lozim. Tovlamachilikda bunday hujjatlarni majburlab berish - bu aslida shaxsning o'z mulkiy huquqlaridan voz kechishga majburlashdir.

Agar aybdor o'z tahdidini ijro etayotganida birovning mulkini yo'q qilgan yoki zarar yetkazgan bo'lsa, aybdorning harakati jinoyatlar bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi. Tovlamachilik amalga oshirilayotgan paytda jabrlanuvchi qasddan o'ldirilgan bo'lsa, harakatlar majmui jinoyatlar to'plami bo'yicha kvalifikatsiya qilinishi lozim bo'ladi. Biroq agar odam o'ldirish tovlamachilik jinoyatining izlarini qo'qotish maqsadi bilan sodir etilgan bo'lsa, aybdor tovlamachilik va odam o'ldirganlik jinoyatlari bo'yicha kvalifikatsiya qilinadi.

Aybdor jabrlanuvchidan uning nomiga qonunga zid holda o'tgan mol-mulkni talab qilganda ham uning qilmishlari tovlamachilik sifatida kvalifikatsiya qilinishi shart bo'ladi.

Tovlamachilikni kvalifikatsiya qilishning o'ziga xos xususiyatlari qatoriga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. Moddiy va subyektiv elementlar. Masalan:

- Mulkni yoki mulkiy huquqlarni tahdid bilan majburan o'tkazish;
- Jabrlanuvchining xohishiga qarshi qilingan harakatlar;
- Jinoyat natijasida moddiy zarar yetkazish.

Subyektiv element:

- Jinoyatchining niyati moddiy foyda olish bo'ladi;
- Maqsad moddiy jihatdan foyda olishdir;
- Ayb shakli - faqat to'g'ridan-to'g'ri qasddan sodir etilishi mumkin.

2. Tovlamachilikning og'irlik darajasi turlicha bo'lishi:

- Oddiy tovlamachilik – shaxs tomonidan nisbatan kichik miqyosda sodir etilgan tovlamachilik.

³ Jumaqulov O.A., g'aniyev F.T., Narziyev Sh.Z. Tovlamachilik jinoyatini oldini olish faoliyati. // CAJMRMS. 2025. №1. 28-bet.

- Yirik tovlamachilik – jinoyat yetkazilgan moddiy zarar miqdoriga qarab og‘irlashadi.

- Guruh tomonidan sodir etilgan tovlamachilik – til biriktirish, rol taqsimoti va muntazam ravishda zo‘ravonlik yoki psixologik bosim qo‘llanilishi bilan birga kechadigan tovlamachilik.

- Takroriy tovlamachilik – ilgari sodir etilgan jinoyat uchun javobgarlikni yengillashtirmaydi, aksincha, jazoni og‘irlashtiradi.

3. Sud qarorlariga dalillarning ta’siri

- tahdidni tasdiqlovchi dalillar (SMS, audio, video yozuvlar);
- guvohlarning ko‘rsatmalari;
- mol-mulkning o‘tkazilganini tasdiqlovchi hujjatlar;

Tahdid haqiqiy ekanligini aniqlash muhimdir. Agar tahdid asossiz bo‘lsa yoki jabrlanuvchi o‘z ixtiyori bilan mulkdan voz kechsa, jinoyat yo‘q deb hisoblanishi mumkin.

4. Tovlamachilikni boshqa jinoyatlardan farqlashdagi qiyinchiliklar. Amalda, tovlamachilikni quyidagi jinoyatlardan ajratish muhimdir:

Boshqaning mulkini talash - yuqori darajadagi zo‘ravonlik bilan, mulkni to‘g‘ridan-to‘g‘ri tortib olish bilan; tovlamachilikda esa tahdid orqali majburlash bo‘ladi.

Firibgarlik - aldash yoki ishonchni suiiste‘mol qilishga asoslangan; tovlamachilik psixologik yoki jismoniy bosimni o‘z ichiga oladi;

Obro‘ga putur yetkazish - ba’zi hollarda tovlamachilik bilan chegaradosh, ammo bu holda, agar moddiy foyda olish niyati bo‘lmasa, bu tovlamachilik deb hisoblanmaydi.

“Shuni nazarda tutish kerakki, bosqinchilik va talonchilikda zo‘rlik ishlatish bilan qo‘rqitish mulkni egallab olish yoki talon-toroj qilinga-nidan so‘ng uni ushlab qolish vositasi bo‘lib xizmat qilsa, tovlamachilikda ushbu qo‘rqitish jabrlanuvchining irodasini so‘ndirish va uni tovlamachining talablarini bajarishga majbur etish vositasi bo‘lib xizmat qiladi”⁴.

Tovlamachilik jinoyatini kvalifikatsiya qilish murakkab huquqiy jarayon bo‘lib, u jinoyatning obyektiv va subyektiv alomatlarini to‘g‘ri aniqlash, tahdidning haqiqiylikini baholash hamda jinoyatni boshqa o‘xshash huquqbuzarliklardan to‘g‘ri farqlashni talab etadi. Mazkur jinoyatning asosiy ijtimoiy xavfi shundaki, u nafaqat mulkiy munosabatlarga, balki shaxsning sha’ni, qadr-qimmati va ruhiy holatiga ham salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Tovlamachilikda tahdid - jinoyatning asosiy vositasi bo‘lib, jabrlanuvchining irodasini sindirish, uni o‘z xohishiga zid ravishda harakat qilishga majbur etish uchun

⁴ Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi rasmiy veb sayti: <https://surxondaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=55682>

qo‘llaniladi. Shuning uchun tahdidning haqiqiyligini, ya‘ni uni amalga oshirish ehtimolini isbotlash, sud amaliyotida jinoyatni to‘g‘ri kvalifikatsiya qilishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa qilib aytganda, tovlamachilik jinoyatini to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish - jinoyatning ijtimoiy xavfini baholash, jinoyatchining niyatini aniqlash, tahdidning darajasini to‘g‘ri belgilash hamda adolatli jazo tayinlash uchun zarur shart hisoblanadi. Bu esa nafaqat jinoyat qonunchiligini takomillashtirishga, balki jamiyatda huquqiy madaniyatni oshirishga ham xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Фараджова Г.С. «Понятие вымогательства и его общественная опасность». // Право и государство: теория и практика. 2021. № 6 (198). С 98-101.
2. Ganiyev F., O‘zoqboyev S. “Voyaga yetmaganlar tomonidan sodir qilinadigan jinoyat ishlarini yuritish”. // Евразийский журнал технологий и инноваций. – 2023. – Т. 1. – № 12. Part 2. – С. 131-134.
3. Jumaqulov O.A., g‘aniyev F.T., Narziyev Sh.Z. “Tovlamachilik jinoyatini oldini olish faoliyati”. // CAJMRMS. 2025. № 1. – 27-33.
4. Никитин Ю.А. «Критерии общественной опасности вымогательства». // Сибирское юридическое обозрение. 2015. № 3 (28). С. 60-65.
5. Raximxo‘jayev R.N., Meyliyev N.N. (2024). “Tovlamachilik jinoyatining tezkor-qidiruv tavsifining ayrim jihatlari tahlili”. // Образование наука и инновационные идеи в мире, 48(6), В 32-46.
6. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. <https://lex.uz/docs/-111453>
7. Surxondaryo viloyat adliya boshqarmasi rasmiy veb-sayti. <https://surxondaryo.adliya.uz/uz/news/detail.php?ID=55682>